

**PIYODALAR ISHTIROKIDAGI YO‘L-TRANSPORT HODISALARI BILAN  
BOG‘LIQ JINOYATLARNING SABAB VA SHART-SHAROITLARI HAMDA  
ULARNI BARTARAF ETISHNING KRIMINOLOGIK JIHATLARI.**

**Boboyorov Jasur Marat o‘g‘li**

*O‘zbekiston respublikasi IIV Malaka oshirish instituti kasbiy tayyorgarlik fakulteti  
maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, mayor*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi, ularning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillar hamda sodir etilishiga imkon yaratuvchi shart-sharoitlar tahlil qilingan. Shuningdek, piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari natijasida yuzaga keladigan jinoiy oqibatlarining oldini olish, profilaktika choralari takomillashtirish va yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashning samarali mexanizmlari yuzasidan ilmiy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *yo‘l harakati xavfsizligi, piyoda, yo‘l-transport hodisasi, jinoyat, kriminologiya, profilaktika, sabab va shart-sharoitlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, transport xavfsizligi.*

O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda transport vositalari sonining ortishi, shaharsozlik jarayonlarining kengayishi hamda aholining harakatchanligi faollashuvi yo‘l harakati tizimining murakkablashuviga olib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida yo‘l-transport hodisalari va ular bilan bog‘liq huquqbuzarlik hamda jinoyatlar sodir etilish xavfini oshirmoqda. Shu sababli ushbu sohada huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, profilaktik choralarni kuchaytirish hamda zamonaviy nazorat tizimlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3127-son qarorining asosiy maqsadi yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini tubdan takomillashtirish, sohadagi boshqaruv samaradorligini oshirish hamda profilaktik mexanizmlarni kuchaytirishdan iborat.

Shuningdek, ushbu qarorda, ayniqsa Toshkent shahrida yo‘l-transport hodisalari va tirbandliklarni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni kompleks tahlil qilish, ularni bartaraf etish hamda yo‘l harakati qoidalari buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish vazifalari belgilangan.

Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari natijasida insonlarning vafot etishi yoki turli darajadagi tan jarohatlari olishi holatlari uchrab turadi. Bunday hodisalarning ayrimlari

Jinoyat kodeksining transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalar bilan kvalifikatsiya qilinadi. Shu sababli ushbu hodisalarning kriminologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### **Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi**

Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlar kriminologik jihatdan ko‘pincha ehtiyotsizlik shaklidagi jinoyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning yuzaga kelishida transport vositasini boshqarish qoidalarining buzilishi, yo‘l infratuzilmasidagi kamchiliklar hamda piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga rioya etmasligi asosiy omillar sifatida xizmat qiladi.

Piyodalar yo‘l harakati qatnashchilarining eng himoyasiz toifasi hisoblanadi. Transport vositasi bilan to‘qnashuv natijasida piyoda ko‘pincha og‘ir tan jarohati oladi yoki vafot etadi. Shu bois xalqaro tashkilotlar ham piyodalar xavfsizligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Kriminologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarining asosiy qismi quyidagi holatlarda sodir bo‘ladi:

- belgilanmagan joydan yo‘lni kesib o‘tish;
- svetoforning taqiqlovchi ishorasida harakatlanish;
- haydovchilarning tezlikni oshirishi;
- mast holda transport vositasini boshqarish;
- piyodalarning tungi vaqtda ko‘rinishini ta‘minlovchi vositalardan foydalanmasligi;
- yo‘l infratuzilmasining talab darajasida emasligi.

Mazkur jinoyatlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularning sodir etilishida bir vaqtning o‘zida bir necha omillar o‘zaro ta‘sirlashadi. Natijada jinoiy oqibatga olib keluvchi xavfli vaziyat yuzaga keladi.

Mazkur turdagi yo‘l-transport hodisalarining huquqiy bahosini berishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu modda talablariga ko‘ra, transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarining buzilishi oqibatida jabrlanuvchiga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir tan jarohati yetkazilsa yoxud inson o‘limi yoki boshqa og‘ir oqibatlar yuzaga kelsa, jinoyat javobgarligi yuzaga keladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 133-moddasi talablariga muvofiq, yo‘l harakati qoidalarining buzilishi natijasida og‘ir bo‘lmagan oqibatlar, xususan engil tan jarohati yetkazilishi yoki moddiy zarar yetkazilishi holatlarida ma‘muriy javobgarlik qo‘llaniladi. Shuningdek, ayrim vaziyatlarda piyodalar ham

yo‘l harakati qoidalarini buzishi, jumladan belgilangan bo‘lmagan joylardan o‘tishi (masalan, piyodalar o‘tish joyidan tashqari hududlardan kesib o‘tishi) oqibatida yo‘l-transport hodisasining kelib chiqishiga sababchi bo‘lishi mumkin bo‘lib, bunday holatlar vakolatli organlar tomonidan tayinlangan sudga oid transport-trasologiyasi hamda sudga oid avtotexnika ekspertizasi qarorlari va ekspert kriminalistlarning xulosalari asosida kompleks huquqiy baholanadi.

### **Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlari**

Kriminologiyada jinoyatning sababi deganda jinoyat sodir etilishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tushuniladi. Shart-sharoitlar esa jinoyat sodir etilishiga imkon yaratuvchi muhit va vaziyatlarni anglatadi.

Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarning asosiy sabablarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

#### Ijtimoiy-psixologik omillar

Haydovchilarning huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi, mas‘uliyatsizlik, yo‘l harakati qoidalariga mensimaslik bilan munosabatda bo‘lishi hamda xavfni to‘g‘ri baholay olmasligi jinoiy oqibatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

#### Tashkiliy omillar

Yo‘l harakati xavfsizligi ustidan nazoratning ayrim hollarda yetarli darajada samarali tashkil etilmaganligi, xavfli hududlarning o‘z vaqtida aniqlanmasligi va profilaktik choralar ko‘rilmasligi ham muhim omillar sirasiga kiradi.

#### Muhandislik-infratuzilmaviy omillar

Piyodalar o‘tish joylarining yetarli emasligi, yoritish tizimlarining nosozligi, yo‘l belgilarining talab darajasida o‘rnatilmaganligi, yerosti va yerusti o‘tish yo‘llarining kamligi hodisalar xavfini oshiradi.

#### Huquqiy omillar

Amaldagi qonunchilik normalarining qo‘llanilish amaliyotidagi ayrim muammolar, profilaktika mexanizmlarining yetarlicha samarali ishlamasligi ham jinoyatlarning sodir etilishiga ta‘sir etuvchi omillardan biridir.

Shu bilan birga, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda normativ-huquqiy asoslar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalarida belgilangan talablar ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur Qoidalarga muvofiq, yo‘l harakati qatnashchilari, jumladan piyodalar va haydovchilar o‘zaro belgilangan majburiyatlarga qat‘iy rioya etishlari lozim.

Qoidalarning tegishli bandlariga ko‘ra, yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lganda haydovchilar transport vositasini darhol to‘xtatishi, avariya signallarini yoqishi hamda hodisa

joyidagi izlar va holatni o‘zgartirish shart. Shuningdek, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, tez tibbiy yordam va ichki ishlar organlariga xabar berish hamda hodisa joyida tegishli tartibda hujjatlashtirish choralari ko‘rish majburiy hisoblanadi. Ushbu talablar yo‘l-transport hodisalarining oqibatlarini og‘irlashtirish va holatni to‘liq huquqiy baholash uchun muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, piyodalar majburiyatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Qoidalarga muvofiq, piyodalar asosan trotuarlar, piyodalar yo‘laklari yoki yo‘l yoqalaridan harakatlanishlari, yo‘lni esa faqat belgilangan piyodalar o‘tish joylaridan kesib o‘tishlari lozim. Tartibga solinmagan yo‘l kesishmalarida piyodalar transport vositalarining yaqinlashish masofasi va tezligini to‘g‘ri baholagan holda xavfsizlikni ta‘minlaganidan so‘ng harakatni davom ettirishlari kerak.

Bundan tashqari, qoidalarga ko‘ra, piyodalarga yo‘lning qatnov qismida e‘tiborni chalg‘ituvchi vositalardan, xususan mobil telefonlardan foydalanish, audio va video mahsulotlarni tinglash yoki ko‘rish taqiqlanadi. Ushbu talablarning buzilishi ko‘plab yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan muhim omillardan biridir.

Shuningdek, 172-son qaror doirasida yo‘l harakati xavfsizligini oshirish maqsadida profilaktik targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, xususan, yetarlicha ko‘rinmaydigan sharoitlarda yo‘lni kesib o‘tishda piyodalarning ustki kiyimida nur qaytaruvchi elementlardan foydalanish zarurligini keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. Bu esa ayniqsa tungi vaqtda piyodalar ishtirokidagi YTHlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur talablar bilan bir qatorda, piyodalar guruhlarining harakati ham tartibga solingan bo‘lib, ularning yo‘lning qatnov qismida tartibli va belgilangan qoidalarga muvofiq harakatlanishi, bolalar guruhlarini esa faqat kattalar kuzatuvda olib yurish talablari belgilangan. Bu holatlar yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda inson omilining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi normativ talablarning buzilishi, shuningdek haydovchilar va piyodalar tomonidan yo‘l harakati qoidalariga rioya etilmasligi yo‘l-transport hodisalarining yuzaga kelishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli mazkur sohada profilaktik ishlarni kuchaytirish, huquqiy targ‘ibotni kengaytirish hamda yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish zarur hisoblanadi.

### **Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarning profilaktikasi**

Mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olish umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktika choralari uyg‘un qo‘llashni talab etadi.

Umumiy profilaktika doirasida aholining huquqiy madaniyatini oshirish, yo‘l harakati qoidalarini targ‘ib qilish, ta‘lim muassasalarida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Maxsus profilaktika doirasida xavfli chorrahalarini aniqlash, videokuzatuv tizimlarini keng joriy etish, tezlik nazorati vositalaridan foydalanish va piyodalar uchun xavfsiz infratuzilmani yaratish lozim.

Yakka tartibdagi profilaktika esa yo‘l harakati qoidalarini muntazam ravishda buzuvchi shaxslar bilan individual ishlashni nazarda tutadi.

Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlar inson hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘diruvchi ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. Mazkur jinoyatlarning sodir etilishiga haydovchilar, piyodalar, yo‘l infratuzilmasi va tashkiliy-huquqiy omillar kompleks tarzda ta‘sir ko‘rsatadi.

Ushbu turdagi jinoyatlarni kamaytirish uchun:

piyodalar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan infratuzilmaviy loyihalarni kengaytirish;

haydovchilar va piyodalarning huquqiy madaniyatini oshirish;

zamonaviy raqamli nazorat vositalarini keng joriy etish;

profilaktika subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish;

qonunchilikni takomillashtirish zarur.

Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarni kamaytirish hamda fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ 900-sonli “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 19.01.2024-yildagi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi 407-sonli Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son Qarori;

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 377-sonli qarori

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3127-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017.